



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT  
SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

**TOSHKENT SHAHRIDA  
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**


*Dastlabki ma'lumot  
2024 - yil yanvar- fevral*



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 71-203-88-20(21)***

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-yanvar-mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 13 895 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 284 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 13 611 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 12 304,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 112,2 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 4 873,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 033,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 114,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 137,6 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>12 304,9</b>	<b>112,2</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	1 147,8	111,4
Bektemir	429,8	111,1
Yunusobod	1 432,1	114,5
Mirzo Ulug'bek	945,5	116,6
Mirobod	908,5	111,2
Shayxontohur	1 311,3	113,5
Olmazor	1 011,6	107,5
Sirg'ali	641,8	112,5
Yakkasaroy	1 256,9	108,3
Yashnobod	1 163,8	120,6
Yangihayot	167,0	125,2
Chilonzor	1 888,8	108,3


2024- yilning yanvar-fevral oylarida 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (125,2 %), Yashnobod (120,6 %) va Mirzo Ulug'bek (116,6 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-fevral)




So'nggi 5 yillikda (2020–2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 112,2 % ni tashkil qildi.

## 2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar- fevral oylarida o'sish sur'ati **112,2 %** ni tashkil qildi.

*Ulushi, foizda*




Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani 15,4 % bilan 1 888,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangihayot tumani 1,4 % bilan 167,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so 'm*









## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo Tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar- fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 7 431,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 10,8 % ga oshdi. Toshkent shahri miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 60,4 % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar- fevral oylariga nisbatan 14,5 % ga o'sdi va 4 873,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 39,6 % ulushiga to'g'ri keldi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik


Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (9,6%), Uchtepa (7,8%) va Yunusobod (7,2%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 39,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (5,7%), Shayxontohur (4,8 %), Yashnobod (4,6%), Yunusobod (4,5%) tumanlarida kuzatildi.

39,6 %

60,4 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



## Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so‘mda*

Toshkent shahri

4 103,5

Yangiyahoyot

994,9

Uchtepa

3 871,2

Chilonzor

6 906,2

Bektemir

7 397,6

Yunusobod

3 853,8

Mirzo Ulug‘bek

2 890,5

Mirobod

6 024,6

Shayxontohur

3 612,4

Olmazor

2 530,2

Sirg‘ali

3 882,3

Yakkasaroy


9 653,8

Yashnobod

3 947,8

2024- yilning yanvar- fevral oylari holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 4 103,5 ming. so‘mni (2023- yilning yanvar- fevral oylariga nisbatan 108,9 %) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (9 653,8 ming. so‘m), Bektemir (7 397,6 ming. so‘m) va Chilonzor (6 906,2 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar- fevral), foizda



**Dehqon bozorlari**



**Chorva bozorlari**

**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2023 - yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>275,5</b>	<b>124,4</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	<b>18,0</b>	<b>89,2</b>
Bektemir	<b>57,4</b>	<b>157,0</b>
Yunusobod	<b>41,6</b>	<b>145,2</b>
Mirzo Ulug'bek	<b>44,5</b>	<b>199,6</b>
Mirobod	<b>5,6</b>	<b>49,3</b>
Shayxontohur	<b>42,9</b>	<b>2,1 m.</b>
Olmazor	<b>10,4</b>	<b>111,2</b>
Sirg'ali	<b>10,1</b>	<b>110,8</b>
Yakkasaroy	<b>6,1</b>	<b>40,4</b>
Yashnobod	<b>23,0</b>	<b>82,9</b>
Yangihayot	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>
Chilonzor	<b>15,9</b>	<b>84,4</b>

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.


## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

(2024- yil yanvar- fevral)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm












(2024- yil yanvar-fevral)



Toshkent shahari bo'yicha 2024- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 275,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 124,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 262,0 mlrd.so'mni (196,3%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylan-masi hajmi 13,5 mlrd so'mni (2,7 m.) tashkil etdi .













2024-yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 262,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (134,6 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>134,6 mlrd. so'm</b></p>  <p>48,9 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>30,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>11,0 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>15,9 mlrd. so'm</b></p>  <p>5,8 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>13,8 mlrd. so'm</b></p>  <p>5,0 %</p>	<p><b>Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>9,2 mlrd. so'm</b></p>  <p>3,3 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>7,8 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,8 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>19,5 mlrd. so'm</b></p>  <p>7,1 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>15,1 mlrd. so'm</b></p>  <p>5,5 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil vem – xashak</b></p> <p><b>0,11 mlrd. so'm</b></p>  <p>0,04 %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>8,8 mlrd. so'm</b></p>  <p>3,2 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>4,8 mlrd. so'm</b></p>  <p>1,7 %</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>2,4 mlrd. so'm</b></p> <p>0,9 %</p>

2024- yilning yanvar-fevral oylarida, Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tuman hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 3481,2 mln. so'mni (2,7 m.) tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 0398,6 mln.so'm, qo'y va echkilar – 2 137,5 mln. so'mni, otlar – 914,5 mln. so'mni, parrandalar – 30,6 mln. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>4 872,0 mln. so'm</b></p>  <p>1,8 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>2 261,9 mln. so'm</b></p>  <p>0,8 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>3 264,7 mln. so'm</b></p>  <p>1,2 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>1923,1 mln. so'm</b></p>  <p>0,7 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>914,5 mln. so'm</b></p>  <p>0,3 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>214,3 mln. so'm</b></p>  <p>0,1%</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>6,5 mln. so'm</b></p>  <p>0,002 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>2,2 mln. so'm</b></p>  <p>0,002 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>8,9 mln. so'm</b></p>  <p>0,003 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>9,4 mln. so'm</b></p>  <p>0,003 %</p>		



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 4 911 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 76 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 835 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>1 373,4</b>	<b>118,7</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	17,0	127,5
Bektemir	11,5	138,6
Yunusobod	82,0	120,4
Mirzo Ulug'bek	58,2	112,0
Mirobod	43,5	117,7
Shayxontohur	177,0	128,6
Olmazor	28,0	121,7
Sirg'ali	47,2	108,8
Yakkasaroy	53,5	115,6
Yashnobod	38,5	110,1
Yangihayot	9,1	113,7
Chilonzor	52,9	108,8

2024- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 373,4 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 118,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 61,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>Ulushi, foizda</b>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>2 459,7</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	213,0	4,3
Bektemir	374,0	7,6
Yunusobod	322,4	6,5
Mirzo Ulug'bek	275,0	5,6
Mirobod	298,7	6,1
Shayxontohur	519,3	10,5
Olmazor	46,1	0,9
Sirg'ali	1 429,9	29,0
Yakkasaroy	477,7	9,7
Yashnobod	337,0	6,8
Yangihayot	298,2	6,0
Chilonzor	343,6	7,0


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Sirg'ali (753,4 mlrd. so'm), Shayxontohur (263,0 mlrd. so'm) va Yakkasaroy (231,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-fevral oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 4 935,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29,3 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 934,1 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 124,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 3 000,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 132,8 %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Toshkent shahari bo‘yicha 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 23 040,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 14,1 % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 15 262,5 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,6 % ga to‘g‘ri keldi. Toshkent shaharida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 66,2 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- yanvar-mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 17 123 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 224 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 16 899 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Bektemir (4,5 m.), Uchtepa (194,5 %) va Sirg‘ali (174,9 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri tumanlar:</b>	<b>23 040,2</b>	<b>114,1</b>
Uchtepa	1 479,5	115,2
Bektemir	326,9	137,5
Yunusobod	2 182,3	119,7
Mirzo Ulug‘bek	1 758,7	104,7
Mirobod	2 789,8	122,7
Shayxontohur	1 281,9	117,7
Olmazor	3 545,3	106,3
Sirg‘ali	1 002,6	120,3
Yakkasaroy	3 009,4	106,7
Yashnobod	2 847,9	119,0
Yangihayot	173,0	110,7
Chilonzor	2 642,8	117,0